

Metonimik jarayonlarning semantik-mantiqiy mexanizmlari

Ergasheva Nozima Xasan qizi
GulDU 2-bosqich tayanch doktaranti

Anotatsiya. Mazkur maqolada metonimik jarayonlarning semantik-mantiqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Metonimiya til tizimida ma’no hosil qilishning muhim vositalaridan biri sifatida ko‘rib chiqilib, uning konseptual elementlar o‘rtasidagi aloqadorlik asosida yuzaga kelishi yoritiladi. Tadqiqotda metonimik ko‘chishning assotsiativ tafakkur, kategoriyalash va referensial siljish kabi mantiqiy asoslari hamda ularning nutqdagi ma’no yaratish jarayonidagi o‘rni izohlanadi.

Kalit so‘zlar. Metonimiya, semantik mexanizm, kognitiv lingvistika, konseptual ko‘chish, assotsiativ tafakkur, referensial siljish, kategoriyalash.

Metonimik jarayonlarning semantik tuzulishi nutqdagi ma’no yaratish mexanizmining muhim komponenti bo‘lib, u bir kontseptual elementning boshqa kontseptual element orqali nomlanishi va shu orqali ma’noning o‘zaro bog‘liqlik asosida uzatilishini ta’minlaydi. Metonimiya tilshunoslikda faqat stilistik vosita emas, balki ma’noni tashkil etuvchi kognitiv mexanizm sifatida qaraladi. bu jarayonda “manba” (source) va “maqsad” (target) tushunchalari real dunyo aloqalari — masalan, qism–butun, yaqinlik yoki sabab–natija munosabatlari orqali bog‘lanadi. Shunday qilib, semantik tuzilish metonimik kengaytma natijasida paydo bo‘lgan konseptual uzatishdan iborat bo‘lib, unda asl ma’no elementidan boshqa ma’noga o‘tish kontiguityga (yaqinlik)asoslanadi va natijada so‘z yoki iboraning leksik ma’nosi undan kengroq yoki yo‘nalgan ma’noga suriladi. Metonimik struktura til birliklari orasida ma’nolararo konseptual xaritalarni shakllantiradi va leksik tarkibda ma’no tizimining dinamizmini ko‘rsatadi, bu esa tilning kognitiv semantika yondashuvi doirasida ma’noni inson tafakkuri orqali tushunishga imkon beradi. Zamonaviy tilshunoslikda metonimiya faqat stilistik vosita sifatida emas, balki inson tafakkurining asosiy kognitiv mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilinmoqda. An’anaviy yondashuvda metonimiya bir predmet nomining boshqa predmet nomi o‘rnida qo‘llanishi sifatida izohlangan bo‘lsa, kognitiv tilshunoslik doirasida u bir konseptual soha ichidagi tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy va semantik aloqalarga asoslangan konseptual ko‘chish sifatida tushuniladi¹. G. Lakoff va M. Johnson metonimiyani inson

tafakkurining real borliqni idrok etish usuli bilan bevosita bog'laydi va uni metafora bilan bir qatorda asosiy konseptual mexanizm sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, metonimiya orqali inson bir obyektini boshqa, unga yaqin bo'lgan obyekt orqali anglaydi, bu esa tafakkur iqtisodini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida metonimiya bu nafaqat til hodisasi, balki tafakkur va bilish jarayonining shakli ekanligini ko'rsatadi.

Metonimiya til tizimidagi dinamik jarayonlarni harakatga keltiruvchi ichki semantik-mantiqiy mexanizm sifatida baholanadi. Metonimik jarayonlarning mantiqiy asosi assotsiativ tafakkur (bir fikr yoki tushuncha ikkinchisini yetaklaydi), kategoriyalash (so'z, fikr, tushunchalarni umumiy yaqinlik asosida bir toifaga jamlash), va referensial siljish (so'z yoki ifodaning odatdagi referentidan chekinib boshqa kochma yoki kengaytirilgan referentga yo'naltirilishi), mexanizmlariga tayanadi. Panther va Thornburg metonimiyani inferensial (xulosa chiqarishga asoslangan) kognitiv mexanizm sifatida izohlaydi².

Bu jarayon quyidagi mantiqiy bosqichlar orqali amalga oshadi:

Obyektlar o'rtasidagi real aloqani anglash, shu aloqaning kognitiv modelga aylanishi, bitta birlik orqali ikkinchi birlikni faollashtirish, natijada yangi nominativ ma'no hosil bo'lishi:

“Zal kuldi” → Zal = odamlar (Makon → Ichidagilar)

Ko'rini turganidek bu yerda makon tushunchasi orqali insonlar tushunchasi mantiqan faollashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arutyunova N. D. Lingvisticheskaya teoriya metonimii. — Moskva: Yazyki slavyanskoy kultury, 2001.
2. Barcelona A. Metonymy in Cognitive Linguistics. — John Benjamins, 2003
3. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.